


Bolalar Muqaddas Kitobi Tasvirlab beradi

Iso Buyuk Ustoz



...tomonidan yozilgan: Edward Hughes

...tomonidan ilustrasiya qilingan:

Byron Unger; Lazarus

...tomonidan o'zgartirishlar kiritilgan:

E. Frischbutter; Sarah S.

Alastair Paterson

...tomonidan ishlab chiqarilgan: Bible for Children

www.M1914.org

BFC

PO Box 3

Winnipeg, MB R3C 2G1

Canada

©2020 Bible for Children, Inc.

Lisenzia: Bu hikoyani chop etishingiz yoki nusxa ko'chirishingiz mumkin.
Lekin u sotilmaydi.

1



Iso buyuk
ustoz edi - insoniyat tarixidagi
eng buyuk ustoz. Olomon Unga
quloq solishardi. Iso ularga,
rahmdil, ezgu va mehribon
bo'linglar, deb o'rgatdi.

2



Odamlar sizdan nafratlanishi, yoki sizga shikast etkazishi mumkin, lekin Xudo sizga g'amxo'rlik qiladi, deb uqtirdi.


3



Iso ularga ko'p narsalarni o'rgatdi. Sham uyni yoritgani kabi, Xudoning xalqi dunyoni yoritadi, deb aytdi U. Birgina sham qorong'u uyni qanchalar yoritadi!

4

Iso ta'lim berayotgan olomon qasos olish to'g'ri, deb ishonardi, "Ko'zga ko'z, tishga tish." Ammo Iso ularga hatto dushmanlarga nisbatan mehribon, kechirimli va sevuvchan bo'lish kerakligini o'rgatdi.



5

Iso yashagan davrda ba'zilar o'zlarini solih qilib ko'rsatishardi. Ular tilanchilarga pul berishganda, hamma ko'rish uchun karnaychi olib kelib karnay chaldirishardi.



6

Iso esa, "Xayriya qilganingizda yashirincha qiling, shunda Xudo sizni mukofotlaydi," deb o'rgatdi.



7

Iso ibodat haqida ham shunday ta'lim berdi. Ba'zilar odamlar ko'rish va eshitishi uchun gavjum ko'chada ibotdat qilishardi. Ularning Xudo bilan ishi yo'q edi. Undaylar uchun faqat insonlarning fikri muhim edi. Iso ularni ikkiyuzlamachilar - sohta solihlar, deb atadi.



8

Talimotini tushuntirish uchun Iso odatda tabiatdan foydalanardi. Masalan, U qushni ko'rsatib, "Qarang, osmondagi Otangiz ularga risqini beradi. Shunday ekan, xavotir olmang. Xudo sizlarning risqingizni ham beradi."



9

"Hatto boy-badavlat shoh Sulaymon ham nilufarguldek kiyinmagan," davom etdi Iso.




10

"Xudo daladagi o'tlarni kiyintirar ekan, sizni ham kiyintirmaydimi?" Iso insonlarga Xudo ularning muxtojliklarini ta'minlashiga ishonish muhimligini o'rgatdi.



11

"Boshqani hurm qilish, o'z ko'zingda xoda turib, uning ko'zidagi kichik xascho'pni olishiga urunish kabidir," dedi Iso. Uning bu gapiga ba'zilar kulishgandir. Ammo, Isoning so'zlari ostida chuqur ma'no bor.



12

Iso odamlarga Xudodan yordam so'rashni o'rgatdi. Dunyoviy ota och bolasi non so'raganda unga tosh beradimi? Yo'q, albatta! Bolasiga yaxshi narsalar beradi. Xudo ham Undan so'raganlarga ezgu narsalarni ulashadi.



13


Eng buyuk ustoz bo'lgan Iso, soxta ustozlardan ehtiyot bo'lishni o'rgatdi. "Ular qo'y kabi kiyinishsada," dedi Iso, "ichlarida bo'ri kabidirlar!" Soxta ustozlarni ularning hayot tarzidan bilib olish mumkin.



14


Bir hikoyasida Iso, Xudoga bo'ysunadigan odamni, uyini tosh ustiga qurqan odamga o'xshatdi.

Daxshatli bo'ron ko'tarildi.
Bo'ron o'tib ketdi, u odamning uyi esa mustahkam turardi.



15

Ahmoq inson esa uyini qumning ustida qurdi. Bo'ron ko'tarilganda, uy poydevori mustahkam bo'lmagani uchun, uning uyi qulab tushdi. Xudoga bo'ysunmaydigan odam shu kabidir, dedi Iso.



16

Insonlar Isoning so'zlariga qoyil qolishdi. Bunday ta'limotni ular hech ham eshitishmagan edi. Endi ular, Xudoning Kalomini shunchaki eshitish yetarli emasligini bilib olishdi. Kalomga har kuni bo'ysunish ham zarurligini tushunishdi.



17

Iso Buyuk Ustoz

Hikoya Xudo Kalomi Injildan olingan

...dan topilgan

Matto 5-7 boblar, Luqo 6 bob

"Kaloming ochilib qolganda ziyo ochar."
Zabur 119:130

18

Bu Kalomdagi Hikoya bizlarga, Xudoning bizlarni ajoyib qilib yaratganligi haqida va biz Uni tanib bilishimiz qanchalik muhim ekanligi haqida hikoya qilib beradi.

Xudo, biz ko'p yomonliklar qilganimizni biladi va U bu Yomonliklarni gunoh deb atadi. Gunohning evazi o'lim lekin Xudo olamni shunchalik sevdi ki O'zining Yagona O'g'lini berdi, va U bizning gunohlarimiz uchun xochda o'ldi. U tirilib yana Osmonga ko'tarildi. Unga ishongan kishi halok bo'lmaydi balki abadiy hayotga ega bo'ladi. Agar siz Isoga ishonsangiz, Undan gunohlaringiz uchun kechirim so'rang, U gunoharingizni kechiradi. U sizning yuragingizga kelib yashaydi va siz U bilan abadiy yashaysiz.

Agar siz bu so'zlar haqiqatligiga ishonsangiz, Xudoga shunday deb ayting: Qadrli Iso, Men Sening Xudoliginga ishonaman, Sen yer yuziga kelib mening gunohlarim uchun o'lding, va Sen yana hozir tiriksan va bir kuni men sen bilan abadiy bo'laman. Men hozir yangi hayot bilan yashayman, iltimos mening hayotimga kel, men Senga itoat qilishim uchun va Sening farzanding bo'lishim uchun yordam ber.

Muqaddas Kalomni o'qib Xudo bilan har kuni suhbatlashing!
Yuhanno 3:16

20

Hikoya tugadi

42



60

19